

27.24
K-64

MILOVA
N.Q. HAMROYEVA

KIYIM LOYIHALASH ASOSLARI



37.84
K-64

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

X.H. KOMILOVA, N.Q. HAMROYEVA

KIYIM LOYIHALASH ASOSLARI

«Tikuvchilik ishlab chiqarishi» yo'nalishidagi
kasb-hunar kollejlari uchun darslik

3-nashri

0108



UO'K: 687.016
KBK 37.24-2ya722
K-64

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Darslikda kiyim to'g'risida umumiy ma'lumotlar, ayollar, erkaklar, bolalar kiyimlarining turlari va o'ziga xos tomonlari hamda odam qomatining tuzilishiga xos xususiyatlar haqida batafsil fikr yuritilgan. Erkaklar, ayollar va bolalarning turli tikuv buyumlari konstruksiyalarining chizmalarini qurish uchun kerakli hisoblashlarga oid dastlabki ma'lumotlar berilgan. Bazaviy konstruksiya asosida turli modellarni ishlash uslubi keltirilgan. Konstruksiya sifatini tekshirish, andazalarni tayyorlash va ularni ko'paytirish hamda kiyim tayyorlash jarayonida o'tkaziladigan model o'rnatuviga doir nazorat tartibi keltirilgan.

Darslik «Tikuvchilik ishlab chiqarishi» yo'nalishidagi kasb-hunar kollejariga mo'ljallangan hamda tikuvchilik sanoati mutaxassislari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Taqrizchilar: **X.B. O'RMONOVA** — O'zbekiston Respublikasi tikuvchilik sanoati assortiment va modalar markazining yetakchi mutaxassisi; **S.M. MUHITDINOV** — Toshkent politexnika kasb-hunar kolleji o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-16-124-5

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2005-y.
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2014-y.

MUQADDIMA

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi yuqori darajada savodli, yuqori malakali va mehnat bozori ehtiyojini ta'minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida va milliy modelda ilmiy uzluksiz ta'limning mazmuniy va tashkiliy rivojlanishiga doir strategik yo'nalish asoslangan holda aniq belgilangan.

Yuqori sifatli tikuv buyumlarini loyihalashtirib, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy iqtisodiy xususiyatlariga to'g'ri yondashib, mutaxassislikka oid murakkab masalalarni yechishga qodir va estetik qonuniyatlarni mukammal egallagan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifadir.

O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoatning rivojlanishi uchun tabiiy xomashyo resurslari mavjud. Tayyor mahsulot bilan ichki bozorni to'ldirib, raqobatbardosh buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish respublikamiz iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Yengil sanoatdagi o'zgargan vaziyatlar, kichik firma va qo'shma korxonalarni tashkil etish, assortiment tez-tez yangilanadigan va tez moslashadigan texnologik «tugallangan sikllar» majmuasini yaratish (ya'ni tolalarni qayta ishlashdan boshlab, tayyor buyum chiqarishgacha) sohasi mutaxassislar tayyorlash jarayoniga yanig'icha yondashuvni talab qiladi. Tikuvchilik sanoati oldiga qo'yiladigan masalalarni hal qilishda kiyimni amaliy va ilmiy jihatdan konstruksiyalash ishlari yetakchi o'rinni egallaydi, chunki loyihalashning ayni shu bosqichida kiyimga va uning sifatiga qo'yiladigan barcha ijtimoiy va texnik-iqtisodiy talablar to'liq hisobga olinishi kerak.

Kiyimni konstruksiyalash — loyiha ishlarining muhim qismi bo'lib, tikuv buyumlari konstruksiyalarini ratsional loyihalash masalalari bilan shug'ullanadigan amaliy fandir. Mazkur darslik kiyim loyihalashga doir muhim o'quv material bo'lib, konstruksiyalash uslublarini mukammallashtirish maqsadida qo'llanadigan zamonaviy yo'nalishlarni va O'zbekiston sharoitida kiyim loyihalash xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Darslik bu yo'ldagi dastlabki ishlardan bo'lganligi sababli, darslik haqida bildirilgan barcha fikr-mulohazalar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

1. KIYIM TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Kiyimning vazifasi. Zamonaviy kiyimlar tasnifi

Insonning kundalik hayotida oziq-ovqat va uy-joydan tashqari, kiyim ham katta ahamiyatga ega. U insonni issiq, sovuq va yog'inlar kabi ob-havoning turli noqulayliklaridan muhofaza qiladigan eng zarur narsadir. Odam boshini kapyushon bilan bekitisa, tana va oyoq-qo'llarini — kombinezon bilan; tanasining yuqori qismini pidjak, jaket, bluza, ko'ylak, pastki qismini esa — shim va yubkalar yordamida muhofaza qiladi.

Kiyim — odam tanasini bekitib, tashqi ta'sirlardan muhofaza qiluvchi va estetik vazifani bajaruvchi buyum yoki buyumlar majmuyidir.

Poyabzal esa kiyimni to'ldirib, u bilan birga *ansamb*l yoki *komplekt* hosil qiladi.

Kiyim *muhofaza* vazifasidan tashqari, *axborot* vazifasini ham bajaradi, chunki u har doim va hamma joyda insonning ijtimoiy mansubligi va kasbiy faoliyatini bildiradigan ramziy belgisi bo'lgan.

Kiyim nafaqat iste'mol mahsuloti, balki uni amaliy san'at asaridek baholash mumkin. Bu haqda dunyo miqyosida turli muzeylarda to'plangan ko'plab tarixiy va xalq kiyimlari namunalari dalolat beradi. Demak, kiyim *estetik* vazifani ham bajaradi.

Inson hayotining turli vaqtida (uyda, xizmatda, hordiq chiqarishda va h.k.) sharoitga mos holda turli kiyimlar kiyiladi. Ayni shu bois kiyimlarni *maishiy*, *ishlab chiqarishga mos* va *sport kiyimlari* kabi turlarga ajratish mumkin.

Kiyimlarning *maishiy* turi eng katta guruh bo'lib, u bir vaqtning o'zida *himoyaviy*, *axborot* va *estetik* vazifalarni bajaradi. Iste'mol sharoitiga qarab maishiy kiyimlar *kundalik*, *bashang* va *uyda kiyiladigan kiyimlarga* bo'linadi.

Ishlab chiqarishga oid kiyimlar insonni sanoatga xos zararli ta'sirlardan muhofaza qilishga mo'ljallangan. Bunday kiyimlar *maxsus* (o't o'chiruvchi, quruvchi va h.k.) va *rasmiy* (harbiy xizmatchilar, temir yo'lchilar kiyimi va h.k.) kiyim turlariga bo'linadi.

Sport kiyimlari sportchilarning yuksak yutuqlarga erishish yo'lidagi harakatlari jarayonida shikastlardan himoya qiladi. Sport kiyimlari ayrim sport turlariga qarab farqlanadi: *tennischilar kiyimi*, *futbolchilar kiyimi* va h.k. Sport kiyimlari musobaqalarda tomoshabinlar oldida estetik vazifani ham bajarishi kerak.

Ishlab chiqarish va savdo amaliyotiga ko'ra kiyimlar *ich kiyim*, *ko'ylak*, *kasum* va *uski kiyimlarga* ajratiladi. Ich kiyimi bevosita tanaga kiyiladi. Ularga ishton va ichki ko'ylaklar kiradi. Ich kiyimlar ustidan ko'ylak yoki kastumlar kiyiladi. Ularning ustidan esa uski kiyimlar — palto, kalta palto, plash kiyilishi mumkin.

Kiyimning har bir turi o'ziga mos tolalar tarkibidan iborat gazlamalardan tayyorlanadi. Shu bois barcha kiyimlar ip, zig'ir, jun, ipak, sintetika yoki ular aralashgan materiallardan tayyorlanadi. Bu guruhlanish *material bo'yicha tasniflanish* deyiladi.

Kiyim har doim kiyiladi, shu bois u faslga qarab *yozi*, *qishki*, *kuzgi-bahorgi*, *hamma faslga mos kiyimlar* kabi tasniflanadi. Yozi kiyimlarga sarafan, shorti, ko'ylak kirs, qishki kiyimlarga pidjak, plash, palto kabilar kiradi.

Maishiy va sport kiyimlari erkaklar, ayollar va bolalarga mo'ljallangan turlarga ajratiladi. Maxsus kiyimlar faqat erkaklar va ayollar uchun chiqariladi. Kiyim aholining *jinsi* va *yoshiga* qarab ham tasniflanadi.

Har bir inson o'z hayoti mobaynida tanasining mutanosibligini (proporsiyalarini), o'lchovi (razmeri) va bo'yi o'zgarishini kuzatadi. Bundan tashqari, bir xil yoshdagi va bir xil jinsli odamlar razmeri (o'lchovi) hamda bo'yi bilan farqlanadi. Har bir insonga mos kiyim tanlash maqsadida kiyimlar *razmer* (o'lchov) va *bo'ylar bo'yicha* ham tasniflanadi.

1.2. Kiyimning sifati va unga qo'yiladigan talablar

Kiyimning sifati deganda, uning vazifasiga ko'ra insondagi muayyan talablarni qondirishga yaraydigan xususiyatlari tushuniladi. Demak, kiyim sifati talablar orqali aniqlansa, iste'molchi talablari esa kiyimning sifatiga nisbatan qo'yiladi, ya'ni sifat va talablar o'zaro bog'langan. Ular inson talablarini qondiradigan quyidagi xususiyatlardan iborat:

Estetik talablar. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadli funksiyasini — insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatini bajara olmaydi.

Estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikka va ijodga bo'lgan talablarini bildiradi.


Giyyenik talablar tanadagi havo almashinuvi darajasini bildiradi. Ushbu talablar kiyimni tuzuvchi materiallarning havo o'tkazuvchanligi hamda kiyimning konstruksiyasi (tuzilishi)ga bog'liq.

Ekspluatatsion talablar kiyimning iste'mol davrida shaklini saqlovchanligi, chidamliligi, choklarining pishiqligi orqali namoyon bo'ladi.

1.3. Kiyimning shakli va bichimlari

Qadim zamonlarda paydo bo'lgan kiyim odamzod rivojlanishi bilan shaklan o'zgarib kelgan. Kiyim taraqqiyotining ilk bosqichi tanani maxsus to'qilgan mato bo'lagi yordamida o'rash bilan xarakterlanadi. Bunday kiyim *yelkaga tashlangan* holda, qomat shaklini ifodalagan (1.1-a rasm). Keyinchalik kiyim *old o'rtasi bo'yicha ochildi*. Bunday kiyimlarda bel chizig'i belbog' yordamida ifodalangan (1.1-b rasm). *Yaxlit bichilgan kiyim* shaklan murakkablashdi. Kiyim yelkada tursa ham, qomat vitachka va tas-malar yordamida ifodalandi (1.1-d rasm). *Belidan* ko'ndalang tepa va etak qismlarga *bo'lingan* kiyim shaklan murakkablashdi (1.1-e rasm). Kiyimning tepa qismi tanaga yopishib, yelkada tursa, yubka esa bel va bo'ksada turar edi.

Zamonaviy kiyim ko'rinishi odam tanasining proporsiyalariga mos holda tuzilgan bo'ladi. Kiyimda bel chizig'i bilan bo'lingan tepa




1.1-rasm. Yelkaga tashlangan (a), old o'rtasi bo'yicha ochiq (b), yaxlit bichilgan (d) va belidan bo'lingan (e) kiyimlarning tashqi ko'rinishi.


qismi — *lif* va pastki qismi — *yubka* yoki *shim* ajratildi.

Kiyimning tashqi ko'rinishi shakli va silueti bilan xarakterlanadi. Kiyimning shakli *yumshoq katta hajmli* (1.2-a rasm) yoki sipo, *konturi o'tkir burchaksimon, kichik hajmli* (1.2-b rasm) bo'lishi mumkin. Kiyimning hajmi uning tanaga nisbatan joylanishiga bog'liq. Katta hajmli kiyimning ba'zi nuqtalari tanaga tegib tursa, kichik hajmli kiyim tanaga zich yopishib turadi. Kiyimning shakli qomatni ifodaliroq ko'rsatadi yoki umuman bilintirmaydi.

Kiyimning shaklini chegaralaydigan chiziqlar *siluet chiziqlari* deyiladi. Yelka, ko'krak, bel va etak chiziqlari kiyim *siluetini* tashkil etadi. Kiyimda to'rtta siluet farqlanadi: *to'g'ri, qisman yopishgan, yopishgan va trapeziasimon* (1.3-rasm).



1.2-rasm. Katta yumshoq hajmli (a), konturi kichik hajmli, o'tkir burchaksimon (b) kiyim shakllari.



1.3-rasm. Ayollar kiyimining asosiy siluetlari.